FarDU, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi

R.N.Nuritdinova

IJTIMOIY LEKSIKA TADQIQI

Annotatsiya : Bugungi kunda inson nutqiy faoliyati bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy dialektlar, sotsiolektlar, argo, jargon va sleng muammolari zamonaviy sotsiolingvistikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Kalit so‘z va iboralar: ijtimoiy dialekt, sotsiolekt, argo, jargon va sleng, imo-ishora, ijtimoiy guruh.

Kirish. Bugungi kunda inson nutqiy faoliyati bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Inson tili/nutqi ijtimoiy holati, nutqiy faoliyati hamda uning imo-ishorasi asosida o‘rganilyapti. Shu bois ma’lum bir shaxs nutqini o‘rganish o‘sha shaxs olami bilan tanishish imkoniyatini beradi. Guruh a’zolari ijtimoiy leksika vositasida borliqdagi mavjudlikni o‘z “til”ida nomlaydi. Bu orqali jamiyat a’zolaridan ajralib turishni maqsad qiladi. Demak, ijtimoiy guruh tili/nutqi ijtimoiy dialekt, sotsiolekt kabi atamalar bilan nomlanib, o‘z ichida argo, jargon va sleng kabi tagguruh nutqiga bo‘linadi. Adabiy tildagi so‘zlardan farqli ravishda nutqdagi ijtimoiy dialektlarning paydo bo‘lishi, o‘ziga xos sistema hosil qilishida jamiyat a’zolari va ularning nutqi ta’siri kuchli bo‘lganligi bois mazkur qatlam, shubhasiz, sotsiolingvistika obyekti hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda sotsiolingvistik tahlil, tarixiy-qiyosiy metod, deskriptiv va nazariy tahlil usullaridan foydalanildi. Dunyo va o‘zbek tilshunosligidagi ilmiy manbalar asosida ijtimoiy leksika bosqichlari va tasniflari o‘rganildi.

Natijalar. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda argo, jargon va sleng funksional jihatdan bir-biriga yaqinligi tufayli ularga nisbatan deyarli bir xil hodisa sifatida qarash yoki birining o‘rnida ikkinchisini anglash holatlari kuzatilmoqda: “Tilda ularni farqlash nafaqat foydalanuvchilar, balki mutaxassislarga ham muammo tug‘dirmoqda”. Avvalo, ularni tadqiq qilishda bir-biridan farqli hamda o‘xshash jihatlarini anglash, mazkur til/nutqning paydo bo‘lish tarixi – etimologiyasi, tadrijiy rivojlanish bosqichlarini izchil tahlil qilish lozim bo‘ladi. So‘nggi paytlarda yangi yo‘nalishlar, xususan, sotsiolingvistika ham shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Biroq ijtimoiy dialektlar tasnifi, atama muammosi hozirgi kungacha to‘liq tadqiq qilingan emas. Shunga qaramay, sotsiolektlar bo‘yicha olib borilgan ilk izlanishlar XIX asrga to‘g‘ri keladi. Birinchi bosqich so‘zlarni lug‘at sifatida o‘rganish hamda tasniflash davri hisoblanadi. Bunda I.A.Boduen de Kurtene mehnatlarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. “Brokgauza va Efronning qomusiy lug‘ati”da olimning “Til va tillar” hamda “O‘g‘rilar tili” nomli maqolalari chop etildi. Unda “umumiste’moldagi so‘zlardan tashqari, ijtimoiy dialekt haqida ham ilk nazariy ma’lumotlar berildi”.

Lug‘atshunoslik hamda nazariy tahlillarning yig‘indisi asosida ikkinchi bosqich XIX asr oxiri–XX asr boshlarida paydo bo‘ldi. Bu davrda V.F.Traxtenberg lug‘ati yaratildi. Muallif qamoqda jazoni o‘tash jarayonida o‘g‘ri va qaroqchilar nutqiga tegishli so‘zlarni jamlab mazkur lug‘atni tashkil etdi. XX asrga kelib tilning xoslangan shakllari haqidagi tasavvur mavjud edi. Biroq tadqiqotchilar oldida ushbu masalani ilmiy asoslash vazifalari ko‘ndalang turardi. Shuni alohida aytib o‘tish lozimki, ilk nazariy tahlillar o‘g‘rilar tiliga qaratildi: “O‘ylab topilgan til mavjud. Biz mazkur lisonni tilanchilik, o‘g‘rilik, kissavurlik bilan mashg‘ul shaxslar nutqi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, dengizchi, konchi, yuk tashuvchi, hatto fohishalarning ham maxsus nutqi mavjuddir”. Uchinchi bosqich XX asrning 20-30-yillarini qamrab oladi. Bunda ijtimoiy

dialektlar ilmiy qarashlar asosida tahlil qilinib, ilk tasniflar olib borildi. V.M.Jirmunskiy, S.A.Koporskiy, D.S.Lixachyovlar asosan argo turi bilan mashg‘ul bo‘lgan bo‘lsa, A.M.Selishev rus inqilobining tilga ta’sir doirasini tahlil qildi. B.A.Larin shahar tilining qatlamlari ustida bahs olib bordi, Y.D.Polivanov esa ijtimoiy dialektologiyaga asos soldi. Bu davrning yirik namoyondalaridan biri V.M.Jirmunskiy hisoblanib, u ijtimoiy dialektni ma’lum bir til yoki uning shevasi zamirida hosil bo‘luvchi nutqiy ko‘rinish deya baholadi. Ijtimoiy dialektlar nafaqat adabiy til, balki shevalar zamirida ham shakllanishi uning fanga taqdim qilgan ilmiy yangiligi edi. Olim mazkur qatlam sotsiolingvistika obyekti ekanligini izohladi. I.A.Boduen de Kurtene ham mazkur hodisaga to‘g‘ri baho bergan: “Til hududlari ikki yo‘nalishda harakat qiladi: “1) gorizontal yo‘nalishda – geografik, topografik turlar: sheva, lahja, milliy til kabilar; 2) vertikal yo‘nalishda – qatlam shaklida bo‘lib, bunda jamiyat va uning a’zolari sifati nazarda tutiladi: ayol, erkak, bola, o‘g‘ri, quruvchi tili kabilar”. Olimning nazariyasi keyinchalik tilshunoslikning juda ko‘p sohalari paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Jumladan, “gorizontal yo‘nalish” bo‘yicha izlanish olib borish areal tilshunoslik, funksional tilshunoslik, dialektologiya kabi qator sohalarga borib tutashsa, “vertikal yo‘nalish” esa sotsiolingvistika, genderlingvistika kabi yo‘nalishlar tadqiqiga sabab bo‘ldi. Bu davrda D.N.Ushakov tahriri ostida “Rus tilining izohli lug‘ati” tuzildi. Uning tarkibiga ijtimoiy leksika ham kiritildi.

To‘rtinchi bosqich XX asrning 60–80-yillarini o‘z ichiga oladi. Bu bosqichga kelib tilning umumiy va xususiy belgilari tadqiq qilina boshladi. V.A.Avronin, B.A.Serebrennikova, L.I.Skvorsov, T.M.Belyayeva, V.A.Xomyakov, A.D.Shveyser ijtimoiy dialektika bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishdi. Jahon tilshunosligida V.A.Styuvard, P.Trudjil, V.Lyubov; o‘zbek tilshunosligida A.Berdialiyev, M.Asqarova va X.Jamolxonov, M.Mirtojiyev kabi olimlar ham mazkur qatlam haqida ma’lumot berib o‘tishdi. To‘rtinchi bosqichga kelib argo va jargonning bir-biridan farqli hamda umumiy jihatlari tahliliy-qiyosiy ravishda o‘rganildi. Masalan, V.D.Bondaletov argoni ikkiga bo‘ldi: kasbiy va nokasbiy argolar. Uning fikriga ko‘ra, kasbiy argo ma’lum kasb doirasida kuzatilsa, nokasbiy argo o‘g‘ri va tilanchilar nutqi sifatida ko‘rsatiladi. V.M.Jirmunskiyning ta’kidlashicha, jargon yengil til hisoblanib, undan hazil-mutoyiba, qulaylik yaratish maqsadida foydalaniladi. Argo esa jinoyatchilarning tirikchilik vositasi sifatida talqin qilinadi: u boshqa olamdan himoyalaydi, kurashish quroli vazifasini o‘taydi. Beshinchi bosqich XXI asrga to‘g‘ri keladi. Unda ijtimoiy leksika ichki guruhlarga bo‘linib, argo, jargon va keyinchalik slengning o‘ziga xos xususiyatlari alohida tadqiq qilina boshlandi. G‘arb tilshunosligida U.O’Gradi, M.Dobrovolskiy, M.Aronoff; rus tilshunosligida Y.M.Bakusheva, L.N.Shevchenko, N.N.Sharandina, N.Kreneta, S.Goydova, O.V.Sibizova, Y.S.Petrovna, Y.G.Tonkova, Y.V.Parxomenko, O.A.Ovchinnikova, Y.A.Gladchenkokabi qator olimlar mana shu yo‘nalish bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishdi.

O‘tgan asrda darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarda mazkur qatlamga doir fikrlarga umumiy tarzda ta’rif berilgan bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida birinchi-lardan bo‘lib olim M.Mirtojiyev argo hamda jargonni monografik aspektda tadqiq etib, ularni bir-biridan farqlaydi. Mazkur qatlamning xalq ichida ham o‘ziga xos ko‘rinishlari mavjudligini ta’kidlaydi. Masalan, farg‘onalik askiyachi Muhiddin Darveshov “pul” so‘zining turli kasb egalari nutqidagi variantlarini sanab o‘tadi: “O‘g‘rilar pulni “loy” deydi, qimorvoz – soqqa, poraxo‘r – soqol, chayqovchi – sarmoya, savdogar – shapka, ombor qo‘riqchisi – yelka, quruvchi – zakalat, kosib – qo‘l uchi, haydovchi – shayba, shifokor – ChP, qassob – kurak, yozuvchi – gonorar, san’atchi – yakan”. Mazkur misol orqali shuni aytish mumkinki, sotsiolektlar insoniyat nutqida qadim-qadimdan mavjud bo‘lib, u milliy tilning bir qismiga aylanganini ko‘rishimiz mumkin. Undan tashqari, xalq tilida tovuqboqar pulni kurka, podachi – serka, talaba- stipendiya, qandolatchi – holva, ta’magir-moyla, bank xodimi – boyla, joyla kabi nomlashlar ham mavjud.

Professor A.Beridaliyev argo va jargonni “kasbiy til” deya nomlab, ularni alohida tasnif qilishni lozim topmaydi: “Bu til, odatda, jargon va argo xarakterida bo‘lib, ular otarchilar, chayqovchilar, qimorbozlar va talabalar nutqiga xoslangan bo‘ladi. Ular umumxalq tilidagi ayrim so‘zlarga okkozional tus berish orqali “ixtiro qilinadi”. Bunday jargon va argolar o‘z sinonimik paradigmasiga ega bo‘lib, ma’lum bir tushuncha bir necha so‘zlar yordamida ifodalanishi

mumkin. Masalan, “aroq” ma’nosida oqi, oq bola, oq suv, oq salla, oq qo‘y, oppoq to‘ra, oq sanam, bo‘yni uzun, novcha, obizamzam, muysafid, oqsoqol, dori, besh karra sakkiz, qittak-qittak, yuz-yuz va b.q.. Olim darslikda ularga ta’rif berib misollarni umumiy tarzda keltiradi.
M.Asqarova va X.Jamolxonovlar jargon va argolarni ba’zi ijtimoiy guruhlar (tekinxo‘rlar, bezorilar, savdogarlar) nutqiga xos bo‘lgan so‘z va iboralar loy, yakan (pul ma’nosida), qaychi (tekshiruvchi ma’nosida), bedana (to‘pponcha ma’nosida) deya ta’riflaydi. Tilshunos olim M.Mirtojiyev esa jargon va argoga alohida to‘xtalib, ularni bir-biridan farqlaydi: “Jargon jamoadagi tabaqalanish bo‘yicha o‘z tabaqasi va qarshi tabaqaga qo‘llanadigan atamalardir. Masalan, aslzoda, oqsuyak, yalangoyoq, qoracha, xo‘ja, janob, hazrati oliy kabi terminlarini ko‘rsatish mumkin”; “argo ma’lum soha vakillari tomonidangina qo‘llanilib, boshqalar uchun sir tutiladigan terminlardir. Masalan, o‘g‘rilar argosida pul loy, narsasini o‘g‘irlatgan shaxs harf va h.k.” Keyingi davrda o‘zbek tilshunosligida ham ijtimoiy leksika bo‘yicha qator izlanishlar olib borildi. Qo‘llanishi chegaralangan qatlam leksikasi A.Hojiyev, Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, K.Qosimova , H.Jamolxonov, U.Tursunov , A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, R.Sayfullayeva, G.Boqiyeva, O‘.Yusupov, B.Mengliyev, Sh.Shahobiddinova, Sh.Yuldasheva va boshqa til-shunoslarning ishlarida o‘ziga xos tarzda tahlil qilingan. Jumladan, B.Mengliyev argo, jargon hamda slengni o‘zaro farqlaydi. Biroq atamalarni qo‘llashda umumiylikka rioya qiladi. Masalan, jargon qiziqishlari, jamiyatdagi o‘rni, yoshiga ko‘ra alohida guruhni tashkil qiladi desa-da, misol keltirganda o‘g‘rilar jargoni deya jargon so‘zini o‘g‘ri tabaqasi nutqiga nisbatan qo‘llaydi: “programmistlar jargoni, talabalar jargoni, aslzodalar jargoni, o‘g‘rilar jargoni, artistlar jargoni va h.” So‘ngra argoga ta’rif berib, “otarchilar argosi, o‘g‘rilar argosi, mahbuslar argosi” deya tasniflagan. Bunda jargon atamasi argo o‘rnida ham qo‘llanish holatlarini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.
Sleng bo‘yicha dastlabki monografik tadqiqot G‘.H.Raximovga tegishli bo‘lib, dissertant o‘z ishida yoshlar nutqiga to‘xtalib o‘tadi. Ushbu ilmiy izlanish o‘zbek sotsiolektlari tadqiqiga bag‘ishlangan dastlabki ishlardan biri hisoblanadi. Biroq tadqiqotchi asosan ingliz va amerika slengi ustida bahs yuritib, o‘zbek slengiga deyarli to‘xtalmaydi. Keyingi tadqiqot D.N.Satimovaga tegishli bo‘lib, u ingliz va o‘zbek yoshlari slengini qiyosiy aspektda tadqiq etadi. Olima ingliz va o‘zbek tillarida yoshlar slengining izomorfik, allomorfik jihatlarini, morfologik, sintaktik va leksik-stilistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qiladi. Hali o‘zbek tilshunosligida ijtimoiy dialektlar keng ko‘lamda to‘liq o‘rganilmagan bir paytda tadqiqotchi sleng, argo va jargonga e’tibor qaratgan, biroq argo va jargonni qiyosiy-tahliliy ravishda o‘rganmaydi. Asosiy e’tibor slengga qaratilib, u bo‘yicha nazariy fikrlar berilgan va namunalar keltirilgan. Bundan tashqari, N.M.Akramova, D.R.Ismoilovalar ham mazkur yo‘nalishda tadqiqot olib borishgan.
Demak, dunyo va o‘zbek tilshunosligida ijtimoiy qatlam tasnifi bo‘yicha ikki xil qarash mavjudligini ko‘rsatish mumkin: 1. Birinchi guruh olimlari U.O’Grady, E.Partridge; rus tilshunoslari V.A.Xomyakov, T.M.Belyayeva, o‘zbek tilshunosligida M.Asqarova va X.Jamolxonov kabilar ijtimoiy guruh tilini ichki guruhga bo‘lishda jargon va argoni alohida tasnif qilishni lozim topmaydilar. 2.V.Labov, V.I.Belikov, L.P.Krisin, N.N.Sharandina, S.P.Yachmenyova, V.P.Korovushkin, G.Siviliya; o‘zbek tilshunosligida M.Mirtojiyev, R.Sayfullayeva, A.Berdialiyev, B.Mengliyev, D.Satimovalarni ikkinchi guruh vakillari sifatida ko‘rsatish mumkin. Ular o‘z ishlarida argo va jargonni bir-biridan farqlaydilar hamda ikki terminga alohida tushuncha sifatida qaraydilar, slengni esa zamonaviy nutq ko‘rinishi, deya baholashadi.

XULOSA. Qo‘llanish doirasi chegaralangan so‘zlar guruhiga mansub ijtimoiy dialektlar lug‘at boyligida o‘ringa ega. Ayniqsa, argoning o‘ziga xos xususiyatlari, jargonning ichki guruh tasnifi, slengning funksiyalari, mazkur atamalarning o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlari mavjudligi hamda qiyosiy-tahliliy aspektda o‘rganlishi kabi muammolar bugun o‘zbek tilshunosligida to‘liq tadqiq etilmagan dolzarb masalalar sifatida o‘z yechimini kutmoqda. Ijtimoiy leksika deganda, kommunikantlarning jamiyatdagi o‘rni, mavqeyi, darajasi, makoni, saviyasi, jinsi kabi bir qancha omillar ta’sirida adabiy tildan farqlanuvchi so‘zlar majmuyi

nazarda tutiladi. Ular tagguruh tili/nutqi (guruh tili – adabiy tili), substandart (standart – adabiy til), subkod (kod – til), ijtimoiy dialektika, sotsiolekt terminlari bilan atalib keladi. Hozirgi kunda mazkur guruh tarkibiga argo, jargon, sleng kiritiladi. Ushbu qatlam tili/nutqini tadqiq etish dunyo tilshunosligida XVI asr, o‘zbek tilshunosligida XIX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Har bir millatning o ‘ziga xos milliy qarash, urf-odati, an’analari asosida shakllangan ijtimoiy dialektlar uzoq tarixga ega. O‘ziga xos hosil qilish sistemasi, ma’no turlari mavjud bo‘lib, milliy til zamirida yaratiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бердиалиев А. Ўзбек синхрон социолингвистикаси. Дарслик. – Тошкент, 2019. – 120 б.
2. Бердиалиев А. Ўзбек синхрон социолингвистикаси. – Хўжанд, 2015. – 195 б.
3. Йўлдошева Ш., Сариев Ш., Матчонов С., Гуломова Х. Она тили ўқитиш методикаси. Дарслик. – Тошкент, 2009. – 248 б.
4. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 с.
5. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент, 1989. – 62 б.
6. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – 168 б.
7. Маҳмудов Н., Миртожиев М. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 112 б.
8. Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 64 б.
9. Мамажонов А., Маҳмудов У. Услубий воситалар. – Фарғона, 1996. – 47 б.
10. Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ЎзМУ, 2000. – 140 б.
11. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. – Андижон, 1980. – 25 б.
12. Нурмонов А.Систем тилшунослик асослари. – Андижон, 2007. – 186 б.